



SAMARQAND VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2022- YILNING
YANVAR-SENTABR
OYLARIDA

Dastlabki ma'lumotlar

	2021- y. yanvar-sentabr	2022- y. yanvar-sentabr
Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, mlrd. so'm	13 199,7	16 396,2
Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, % da	120,3	115,1
Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, ming so'm	3 317,9	4 035,5
Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmalarning o'sish sur'atlari, % da	118,0	112,7

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 196,5** mlrd. so'mga oshib, **16 396,2** mlrd. so'mga yetdi.

Taqqoslama ekvivalentda 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga (**120,3** %) nisbatan o'sish sur'ati **115,1** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi
bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Xizmatlar
iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiruvchi yoki tovarlar, xizmatlar yoki moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**
(2022- yil yanvar-sentabr oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	16 396,2	115,1
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	765,7	123,3
Moliyaviy xizmatlar	2 721,7	135,5
Transport xizmatlari	3 868,0	108,5
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	3 651,0	109,3
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	594,2	113,2
Savdo xizmatlari	4 596,8	111,0
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	406,7	112,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	769,2	112,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	344,2	119,3
Ijara xizmatlari	477,4	113,1
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	483,1	108,9
Shaxsiy xizmatlar	718,9	111,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	243,2	98,1
Boshqa xizmatlar	407,1	128,3

Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar savdo xizmatlari (**28,0 %**), transport xizmatlari (**23,6 %**), moliyaviy xizmatlar (**16,6 %**), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (**4,7 %**) qayd etildi.

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **1,5 %** ga yetdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da
(2022- yil yanvar-sentabr oylarida)

Savdo
xizmatlari –
28,0

Transport
xizmatlari –
23,6

Moliyaviy
xizmatlar –
16,6

Boshqa
xizmatlar –
14,8

Aloqa va
axborotlashtirish
xizmatlari –
4,7

Ta'lim
sohasidagi
xizmatlar –
4,7

Yashash va
ovqatlanish
xizmatlari –
3,6

Ko'chmas mulk
bilan bog'liq
xizmatlar –
2,5

Me'morchilik
sohasidagi
xizmatlar –
1,5

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar sohasida yuqori o'sishga erishildi (**16,6 %**). 2021- yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati bilan solishtirganda farq **10,0** punktni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida, 2021- yilning mos davriga nisbatan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sish sur'atlari o'rtasidagi maksimal ijobiy tafovut **7,1** punkt darajasida qayd etildi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, % da



*Dastlabki ma'lumotlar
2022- yil yanvar-sentabr oylarida*

**Savdo xizmatlari
(yanvar-sentabr
oylarida)**

**O'sish
sur'ati, % da**

**Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm**



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.




Dastlabki ma'lumotlar
2022- yil yanvar-sentabr oylarida

**Transport
xizmatlari**
(yanvar-sentabr
oylarida)

*O'sish
sur'ati, % da*

*Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm*



Transport xizmatlari hajmining o'sishi, yuk va yo'lovchilarni tashish xizmatlariga talabning oshishi bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida turistik faoliyatning jadal rivojlanishi, savdo tarmog'ining kengayishi, qurilish loyihalari hajmini yanada kengaytirishga, bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish, shuningdek, transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq.



*Dastlabki ma'lumotlar
2022- yil yanvar-sentabr oylarida*

**Avtomobil transporti
xizmatlari
(yanvar-sentabr
oylarida)**

*O'sish
sur'ati, % da*

*Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm*

2022- y. 109,3

2021- y. 115,1

3 651,0

3 141,6

Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi.

Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.




*Dastlabki ma'lumotlar
2022- yil yanvar-sentabr oylarida*

**Moliyaviy
xizmatlar**
(yanvar-sentabr
oylarida)

*Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm*

*O'sish
sur'ati, % da*



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.





*Dastlabki ma'lumotlar
2022- yil yanvar-sentabr oylarida*

**Aloqa va
axborotlashtirish
xizmatlari
(yanvar-sentabr
oylarida)**

*O'sish
sur'ati, % da*

*Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm*



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.



Dastlabki ma'lumotlar
2022- yil yanvar-sentabr oylarida

Ta'lim sohasidagi
xizmatlar
(yanvar-sentabr
oylarida)

*O'sish
sur'ati, % da*

*Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm*



2022- yil yanvar-sentabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **769,2** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **4,7** % ini tashkil etdi. 2021- yil yanvar-sentabrga nisbatan o'sish sur'ati **112,4** % ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-sentabrda xizmatlar hajmi **629,6** mlrd. so'mni tashkil etgan. 2020- yilga nisbatan esa **55,1** % ga o'sish qayd etilgan.




*Dastlabki ma'lumotlar
2022- yil yanvar-sentabr oylarida*

**Yashash va
ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar
(yanvar-sentabr
oylarida)**

*O'sish
sur'ati, % da*

*Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm*



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.



Dastlabki ma'lumotlar
2022- yil yanvar-sentabr oylarida

Sog'liqni saqlash
sohasidagi xizmatlar
(yanvar-sentabr
oylarida)

Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm

O'sish
sur'ati, % da



2022- yil yanvar-sentabr oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **344,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **2,1** % ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-sentabriga nisbatan o'sish sur'ati **119,3** % ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-sentabr oylarida ushbu xizmatlar hajmi **260,8** mlrd. so'mni yoki ularning umumiy hajmining **2,0** % ini tashkil etgan.



*Dastlabki ma'lumotlar
2022- yil yanvar-sentabr oylarida*

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari


	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
Samarqand viloyati	16 396,2	115,1	120,3
Samarqand shahri	7 090,8	119,1	126,1
Kattaqo'rg'on shahri	374,9	112,5	116,2
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	570,7	112,1	116,8
Bulung'ur	441,8	112,2	118,7
Jomboy	658,8	112,1	115,9
Ishtixon	580,5	112,0	114,2
Kattaqo'rg'on	643,2	111,9	114,6
Qo'shrabot	323,4	112,0	114,8
Narpay	540,6	112,1	115,4
Payariq	577,9	112,2	116,9
Pastdarg'om	999,8	111,8	115,0
Paxtachi	361,1	111,8	114,1
Samarqand	1 091,3	113,1	115,7
Nurobod	324,9	111,8	113,7
Urgut	1 105,6	113,0	116,9
Toyloq	710,9	112,6	124,8

Dastlabki ma'lumotlar
2022- yil yanvar-sentabr oylarida

Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan bozor
xizmatlarining
asosiy
ko'rsatkichlari
(yanvar-sentabr
oylarida)

*O'sish
sur'ati, % da*

*Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm*



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 035,5** ming so'mga yetdi. 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **112,7 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ushbu ko'rsatkich hududlar bo'yicha Samarqand shahrida **12 526,6** ming so'mdan Urgut tumanida **2 058,3** ming so'mgachani tashkil etdi.



Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 66-230-45-34